Мимика играет ключевую роль в формировании взаимопонимания, регулировании межличностных отношений, управлении эмоциональной атмосферой общения и передаче скрытых смыслов, которые не всегда могут быть выражены вербально. Понимание механизмов мимического поведения, знание культурных особенностей и психолингвистических факторов позволяет существенно повысить точность интерпретации сигналов, снизить риск недопонимания и создать более продуктивное и гармоничное взаимодействие между участниками коммуникации.

Дальнейшее изучение мимики имеет большое значение для различных областей науки и практики, включая психологию, лингвистику, педагогику, дипломатию, деловое общение и сферу межкультурных коммуникаций. В этих сферах качество взаимодействия во многом зависит от способности участников корректно воспринимать, интерпретировать и использовать невербальные сигналы. Это подчеркивает актуальность и практическую значимость исследований мимики и необходимость системного подхода к изучению её функций в межличностной и межкультурной коммуникации.

Список литературы

1. Ekman, P. (2003). *Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life*. New York: Times Books.
2. Darwin, C. (1872). *The Expression of the Emotions in Man and Animals*. London: John Murray.
3. Matsumoto, D., & Hwang, H. S. (2013). *Culture and Nonverbal Behavior*. In: Hall, J. A., & Knapp, M. L. (Eds.), *Handbook of Communication Science* (pp. 315–336). Berlin: Mouton de Gruyter.
4. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
5. Hall, E. T. (1966). *The Hidden Dimension*. New York: Doubleday.
6. Argyle, M. (1988). *Bodily Communication*. London: Methuen.
7. Kendon, A. (1990). *Conducting Interaction: Patterns of Behavior in Focused Encounters*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Givens, D. B. (2005). *The Nonverbal Dictionary of Gestures, Signs & Body Language Cues*. Center for Nonverbal Studies.
9. Van der Zee, K., & Atsma, N. (2017). *Cross-Cultural Differences in Facial Expression Recognition*. *Journal of Nonverbal Behavior*, 41(3), 1–20.
10. Pease, A., & Pease, B. (2004). *The Definitive Book of Body Language*. New York: Bantam Books.

JALOLIDDIN RUMIY HIKMATLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Razzoqova Nafosat Ramiz qizi, BuxDPI Pedagogika ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, pedagogik falsafa, qalb ko'zi, ma'naviy tarbiya, tasavvufiy tafakkur, haqiqat, ko'ngil, ta'lim mazmuni.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyaning hikmatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Bunda ta'lim jarayonida faqat zohiriy bilim emas, balki ichki haqiqat va ma'naviy yetuklik muhimligi asoslanadi. Maqolada ko'ngil ko'zi orqali haqiqatni ko'ra olish insoniy tarbiyaning markazida turishi kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va Rumi tafakkuri o'rtasidagi mushtaraklik yoritiladi.

ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В МУДРОСТИ

ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Раззокова Нафосат Рамиз кизи, Бухарский государственный педагогический

институт, Студент педагогического направления

Ключевые слова: Джалаладдин Руми, педагогическая философия, око сердца, духовное воспитание, суфийское мышление, истина, душа, содержание образования.

Аннотация: В данной статье изречения Джалаладдина Руми анализируются с педагогической точки зрения. При этом обосновывается важность не только внешнего знания в образовательном процессе, но и внутренней истины и духовной зрелости. В статье подчеркивается, что способность видеть истину оком сердца должна находиться в центре человеческого воспитания. Также освещается общность между современной педагогикой и мышлением Руми.

EDUCATIONAL MATTERS IN THE WISDOM OF JALALUDDIN RUMI

Razzokova Nafosat Ramiz qizi, Bukhara State Pedagogical Institute

Student of Pedagogical education

Keywords: Jalaluddin Rumi, pedagogical philosophy, the eye of the heart, spiritual education, Sufi thought, truth, heart, content of education.

Abstract: This article analyzes the wisdom of Jalaluddin Rumi from a pedagogical point of view. In this case, the importance of not only external knowledge, but also inner truth and spiritual maturity in the educational process is substantiated. The article emphasizes that the ability to see the truth through the eyes of the soul should be at the center of human education. The commonality between modern pedagogy and Rumi's thinking is also highlighted.

Insoniyat tarixini o'rganish hamma vaqt-har qanday davr odamlari uchun muhim bo'lgan. Zotan inson tabiatan o'z o'tmishiga qiziqib yashaydi, uning ildizlarini ochishga, jonzot sifatida o'z mohiyatini anglashga ehtiyoj sezadi. Milliy mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng rang –barang mavzularda ko'plab risolalar nashr qilindi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, qalb pokligi va ruhiy masalalarini yoritish asosiy g'oyalardan biri bo'lib kelgan. Ularning asarlarida inson ruhiy dunyosini tarbiyalash, uni yaxshilik, sabr-toqat va kamolikka undash asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Binobarin, tasavvuf olamining yirik namoyondasi Jaloliddin Rumi ana shunday allomalardan biri bo'lib, uning hikmatlari bugungi kun uchun ham ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Rumi asarlaridagi joziba shu qadar inson ko'ngliga yaqinki, uning har bir so'zi bir mayoq, umr yo'llarini yorituvchi chiroq, qalbgga qo'yiladigan ziyo kabidir. Uning:

“Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil,

Ko'z bo'rm-u Haqni ko'rmas bo'lsa ul” degan hikmatli so'zi zamirida ham chuqur ma'no bor. Ushbu hikmat zamirida insonni tashqi ko'rishdan ichki ko'rishga, ya'ni moddiy idrokdan ma'naviy idrok sari yo'naltiradi. Uningcha, haqiqiy ko'rish – bu ko'ngil ko'zi bilan anglashdir. Ko'z jismni, rangni, shaklni ko'rsa, qalb ko'zi haqiqatni, ezgulik va Alloh (Haq)ni

idrok etishdir. Pedagogik nuqtayi nazaridan, bu hikmat shaxs tarbiyasida ma'naviy poklanish, axloqiy tozalik va ichki idrokni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Zamonaviy ta'limda ham insonni har tomonlama rivojlantirish jarayonida uning ruhiy-ma'naviy dunyosini uyg'otish, qalbini nurlantirish muhim ahamiyatga ega.

Rumiyning ushbu hikmati zamonaviy pedagogika uchun ham dolzarb bo'lib, u ma'naviy tarbiya, ichki dunyoni anglash va ezgulikka yo'naltirilgan shaxs kamoloti g'oyalari tayanadi. Har bir pedagogning vazifasi – o'quvchi qalbida “ko'ngil ko'zi”ni uyg'otishdir.

Rumiyning yana bir hikmatlaridan biri:

“Ba'zan tugash bilmagan dardlar yomg'ir bo'lib ustingdan yog'adi.

Shuni unutmaki, rango-rang kamalak yomg'irdan keyin chiqadi”

Mazkur hikmat inson hayotidagi sinov va og'irliklarning aslida insonni poklash va kamolga eltuvchi vosita ekanini bildiradi. Ushbu fikrni pedagogik-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish inson tarbiyasi va o'zini anglash jarayonini chuqurroq yoritishga yordam beradi.

Pedagogik falsafada insonning shakllanishi – bu sinovlar, izlanishlar va o'zini tarbiyalash orqali amalga oshadigan jarayondir. Rumiym timsolida “yomg'ir” – hayotdagi dard, sinov va mashaqqatlarning ramzi sifatida ko'riladi. O'quvchi yoki tarbiyalanuvchi uchun bu jarayonlar ko'p hollarda og'ir bo'lishi mumkin, biroq aynan shu qiyinchiliklar insonni irodali, sabrli va hayotga tayyor shaxsga aylantiradi.

“Rango-rang kamalak” esa bu sinovlardan so'ng yuzaga keladigan ijobiy natijani insonning ma'naviy yetukligi, ruhiy barqarorligi va hayotiy tajribasini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida har bir qiyinchilik insonni sinovdan o'tkazish bilan birga, uni ruhiy jihatdan mustahkamlaydi. Shu bois pedagog uchun har bir o'quvchi “yomg'ir”ni boshidan kechirar ekan, u kelajakda “kamalak”day go'zal natijaga erishishini anglash muhimdir. Rumiyning fikricha, insonni sinovlardan asrash emas, balki uni sinovlar orqali o'z mohiyatini anglashga yo'naltirish kerak. Shuningdek, Rumiym hikmati shuni anglatadiki, har bir inson o'z “yomg'ir”ini boshidan kechiradi, lekin uni qanday qabul qilishi uning tarbiyasi, dunyoqarashi va sabriga bog'liq. Pedagogik nuqtayi nazaridan, bu jarayon tarbiyachidan sabr, ijobiy ruh, mehr va individual yondashuvni talab qiladi. U inson tarbiyasining asosiy mohiyatini sinov orqali komillikka erishishni ifodalaydi. “Yomg'ir” dard va mashaqqatning ramzi, “kamalak” esa bu sinovlardan keyingi ma'naviy yuksalish timsolidir. Tarbiya jarayonida insonni og'irliklardan qutqarish emas, balki ularni yengish, sabrli bo'lish va har bir sinovdan saboq olishga o'rgatish pedagogning eng muhim vazifalaridan biridir.

“Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil,

Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi”- degan hikmati ham insonning ichki dunyosi, ma'naviy pokligi va axloqiy tarbiyasiga urg'u beradi. Ushbu hikmat zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan ham dolzarb bo'lib, shaxs tarbiyasining ichki va tashqi jihatlaridagi uyg'unlikni ifodalaydi.

Avvalo, Rumiym aytganidek, so'z insonning ichki holatini aks ettiruvchi vositadir. Demak, insonning tili qanday bo'lishi uning qalbidagi holat bilan bevosita bog'liq. Agar qalb pok, toza va mehr bilan to'lgan bo'lsa, so'z ham chiroyli, samimiy va ezgu bo'ladi. Shu boisdan tarbiya jarayonida eng avvalo qalbni, ya'ni insonning ichki dunyosini tarbiyalash zarur. Ilmiy-pedagogik jihatdan bu hikmat axloqiy va ruhiy tarbiyaning muhimligini ko'rsatadi. Shaxsni tarbiyalashda faqat tashqi xulq-atvorga emas, balki uning ichki e'tiqodi, his-tuyg'ulari va motivlariga ham e'tibor qaratish lozim. Bu — shaxsda axloqiy qadriyatlar, empatiya, halollik, sabr va adolat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Shuningdek, hikmatda nutq madaniyatining mohiyati ham ochib berilgan. Til tarbiyasi, ya'ni odob bilan so'zlash, boshqalarga hurmat bilan murojaat qilish — bu ichki tarbiyaning tashqi ko'rinishidir. Pedagogik jarayonda o'quvchilarga so'zlash madaniyati, muomala etikasi va muloqotda mas'uliyat hissini o'rgatish muhim o'rin tutadi. Chunki tarbiyalangan qalbdan

chiqqan soʻz har doim insonlar qalbiga yoʻl topadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Rumiylarning hikmatlari inson tarbiyasida maʼnaviy yetuklik, sabr va ichki nurga intilishni targʻib etadi. U insonni tashqi koʻrinishdan koʻra, qalb koʻzi bilan haqiqatni koʻrishga undaydi. Rumiylarning taʼlimotiga koʻra, hayotdagi sinov va dardlar insonni kamolot sari yetaklaydi. Shunday ekan, uning hikmatlari zamonaviy pedagogika uchun ham ruhiy-axloqiy tarbiya manbai sifatida katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqola tahlili shuni koʻrsatadiki, Jaloliddin Rumiylarning ijodi inson maʼnaviy yuksalishida muhim manba boʻlib xizmat qilgan va uning falsafiy gʻoyalari bugungi zamonaviy jamiyatda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narzulla Joʻrayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari.
2. Jaloliddin Rumiylarning Hikmatlari. Jamol Kamol tarjimai. 2021-yil. 192 bet
3. Lewis, Franklin, Rumi: Past and Present, East and West: The Life, Teachings, and Poetry of Jalal al-Din Rumi. Oneworld Publications, 2008.
4. G. V. Izbullayeva. Jaloliddin Rumiylarning asarlarida yuksak maʼnaviyatli shaxs tarbiyasi. Toshkent-2015.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI

Zarafshon Jalilov Baxshullayevich, Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
BDPI Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Sodiqova Shaxlo Iskandar qizi, BDPI 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim –tarbiyaga oid pedagogik qarashlari, oilaviy munosabatlarda farzand va ota-onasi munosabatlari, yosh avlodni ma'naviy- axloqiy kamol topishi uchun milliy qadriyatlarining tutgan o'rni, inson aqliy tafakkuri haqidagi ilmiy fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy fazilatlar, milliy xarakter, milliy o'zlik, ma'rifat, odob-axloq, ezgu va sog'lom g'oya, aqliy bilim, ma'naviyat, ruhiyat, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakter, din, urf-odatlar, qadriyatlar, tamoyil, xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlik, ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ

Zarafshon Djaliлов Бахиуллаевич, Доктор педагогических наук (PhD), доцент
Преподаватель кафедры общей педагогики БДПИ

Садикова Шахло Искадаровна, Магистрант 2-го этапа БДПИ

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические взгляды восточных мыслителей на воспитание, взаимоотношения ребенка и родителей в семейных отношениях, роль национальных ценностей в духовно –нравственном совершенствовании подрастающего поколения, научные взгляды на психическое мышление человека.

Ключевые слова: национальные качества, национальный характер, национальное самосознание, просвещение, нравственность, благородная и здоровая идея, умственные знания, духовность, психика, интеллектуальные и моральные качества, характер, религия, традиции, ценности, принцип, щедрость, доброта, милосердие, андиша, или-честь, очарование, целомудрие, скромность, величие, терпение, духовные качества, гостеприимство, терпимость, детство, доброжелательность, трудолюбие

SPIRITUAL AND MORAL VIEWS OF EASTERN THINKERS ON EDUCATION

Zarafshan Jalilov Bakhshullaevich, Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
associate professor Teacher of the Department of general pedagogy of BDPI

Sadikova Shahlo daughter of Iskandar, BDPI Phase 2 graduate

Annotation: this article covers the pedagogical views of Eastern thinkers on education, the relationship of children and parents in family relationships, the role of national values for the spiritual and moral maturation of the younger generation, scientific opinions on human mental thinking.

Keywords: national qualities, national character, national self, enlightenment, etiquette, noble and healthy idea, mental knowledge, spirituality, psyche, intellectual and moral qualities, character, religion, customs, values, principle, charity, kindness, kindness, kindness, kindness, andisha, or-nomus, sharm-hayo, chastity, pressure, grandeur, patience, spiritual qualities, hospitality, tolerance, childishness, whiteness, hard workmanship

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida axborot ko'laminin kengligi, virtuallashishning inson xulq-atvori va tarbiyasiga ta'siri, ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq-atvor, ideal shaxs modeli, barkamol shaxs portreti, g'oyaviy shaxs modeli, milliy fazilatlar,

umuminsoniy fazilatlar, milliy va zamonaviy tarbiya metodlari, texnologiyalari, shaxsning ijtimoiy shartlanishidagi milliy fazilatlar, milliy xarakter, milliy o'zlik, dunyo odamlari modeli kabi tadqiqotlar olib borilmoqda va ilmiy asoslangan ilmiy xulosalar taqdim qilinmoqda. Biroq bu borada, oilaviy tarbiya metodlarini farzand xulq-atvoriga ta'siri, yoshlar milliy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni erta psixodiagnostika qilish orqali korreksiyalashni amalga oshirish, milliy tarbiya, milliy axloq jarayonidagi muammolarni ilmiy asosda aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda. Har bir zamon va makondagi insoniyat avlodlari o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va ijtimoiy normalarini ishlab chiqish jarayonida o'z ajdodlarining milliy xarakter va milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchilik xususiyatini namoyon qilib boradi. Har bir avlodning ana shunday ijtimoiy reproduktiv burchlarini amalga oshirilishi ijtimoiy barhayotlikni va insoniyat taraqqiyotining boy rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai-nazardan har bir avlod vakillari tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi milliy tarbiyaning mahsulidir.

Biz tarbiya haqida buyuk mutafakkirlarimiz va allomalarimiz aytgan yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savolga buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlash lozim, deb javob bergan. Chunki bolaning ma'rifatiga, odob-axloqiga yoki umumiy ma'noda uning tarbiyasiga ham aynan shu paytdan asos solinadi. Bugungi yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Bizga ma'lumki millatimizda milliy tarbiya masalasi eng ulug' va eng ma'suliyatli ishlardan biri sifatida qaralib kelingan. Milliy tarbiyamiz ota-onalarning farzandlari bilan juda yumshoq munosabatda bo'lish kerakligini taqozo qiladi. Onaxon va otaxonlar "Bolani uch yoshga qadar faqat erkalatish va yumshoq muomalada bo'lish kerak, aksincha, qattiq gapirsa bola o'jar va qaysar bo'ladi", deyishadi. Ko'pchilik zamondosh ota-onalarning fikricha ham, uch yoshga qadar bolani o'z erkiga qo'yish, unga faqat yaxshi gapirish kerak, agar go'dak yoshida bola urib-so'kilmasa, unga yaxshi muomala qilinsa, bola kattalarni gapini tinglaydigan, itoatli va yuvosh bo'lib o'sadi. Umuman olganda bizning bobo-momalarimiz yosh bolaning o'ta ta'sirchan, his-tuyg'ularga beriluvchan bo'lishini anglaganlar. Bu jarayon ularni bola psixologiyasi va milliy tarbiyada ijtimoiy-psixologik qonuniyatlardan xabardor ekanligini bildiradi. Shuning uchun ularga juda yumshoq muomalada bo'lganlar, to esini tanimaguncha ko'nglini cho'ktirmaslikka, sindirmaslikka harakat qilganlar. Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog'lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya hamda mafkura asosida o'z yo'lidan adashmay o'z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulma'aliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida hamda "Avesto" va "Qur'on" kabi muqaddas kitoblarimizda ham shaxs kamoloti, go'zal xulqli insonning chiroyli fazilatlarini, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to'g'ri yo'lga solish, sog'lom bo'lmagan xulq egalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo'llar, buzg'unchi fikr va g'oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Allomalarimiz inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Sharq allomalar fikricha,

inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma‘naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma‘lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta‘sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Sharq mutafakkirlari Ahmad al Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at- Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro Alisher Navoiy kabi buyuk allomalimiz insonning ta‘lim-tarbiyasi, odobaxloqi, muloqoti va boshqa ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni qoldirganlar. Sharq mutafakkirlari inson kamolotida ilmlilik va axloqlilikni eng muhim mezoni deb hisoblaydi. Odobli, axloqli ilimli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Shunday ekan mutafakkirlarimiz ilm va odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, yoshlarimizga buyuk ajdodlarimizning ma‘naviy merosidan bahramand qilib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Qadriyat bu jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma‘rifat, madaniyat, moddiy va ma‘naviy boyliklar, obida yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an‘ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Inson butun umri davomida, son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi. Ana shu milliy qadriyatlarimizdan biri O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy muhit va ta‘lim- tarbiyaning aloqadorligi haqidagi qimmatli fikrlaridir. Yoshlar faolligini ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an‘analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo‘lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko‘rsatuvchi izoh, ya‘ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma‘naviy barkamol yoshlarni o‘ziga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug‘vorlik, sabrlilik kabi ma‘naviy fazilatlar, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an‘analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma‘naviy boyliklar bilan qo‘shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma‘naviy poklanishni ta‘minlashga ko‘maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma‘naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa: yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishda sharq mutafakkirlari va ma‘rifatparvar olimlarimizni ta‘limotlari va qarashlaridagi ilmiy asoslangan va hayot davomida kuzatilib, ijtimoiy hayotga tatbiq qilingan tajriba asosiga qurshimiz kafolatlangan tarbiya ishi hisoblanadi. intellektual rivojlanganlik, yuksak ma‘naviyat, axloqiy sog‘lomlik, jismoniy chiniqqanlik, mustaqillik ideallariga cheksiz sadoqat, Vatani va xalqiga sodiq, milliy o‘zligimizga yot g‘oya, qarashlarga murossasizlikni mujassam etish taqozo etilmoqda. Sharq mutafakkirlarini masala bo‘yicha yondashuvlariga asoslanib eng ustuvor jihat tarbiyada ota-onaning roli ekanligi aniqlandi. Oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota-onaning sa‘yi- harakati hisoblanadi. Bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib borishligi yana bir bor nazariy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. T.: 2016 y.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilolnashr”. 2013 y.
3. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma‘naviy qadriyatlar. T.:Muharrir, 2008 y.

4. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
5. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
6. M.Hamdanova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.
7. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
8. San'at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
9. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y. 10. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
10. Abduraxmonov A. Al-Xorazmiy – buyuk matematik. – T.: "O'qituvchi", 1993-y. -87b.
11. Ajdodlar o'giti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar (to'plovchivaizohlarmuallifi B. Ahmedov). – T.: Cho'lpon, 1990-y. –240b.
12. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 – T., -T.: "Fan", 1995-yil.
13. Komil inson haqida to'rt risola (fors-tojik tilidan N. Komilov tarj). - T.: Ma'naviyat, 1997-y. -280bet.
14. Mahkamov U. Axloq-odobsaboqlari. - T.: Fan, 1994-y. -135bet.
15. Ch.A. Sabirova "Principles, Factors, System, Content and Conditions of Moral and Aesthetic Education of Future Teachers with Focus on Personality Improving "Eastern European Scientific Journal". Germany –2017. No6.
16. www.ziyounet.uz.

ILM –FAN TARAQQIYOTIDA O‘ZBEK PEDAGOGIKASINING TUTGAN O‘RNI

Qurbonova Nigina Boboxo‘jayevna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ilm -bu o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmuasi ekanligi. Davrning dolzarb sohalariga ko‘proq e‘tibor berish, fanning yutuqlarini amaliy hayotga ko‘proq va unumliroq tadbiiq etish haqida fikr yuritilgan. Milliy dasturning asosiy maqsadi: ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak manaviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, fikr, erkin fikr, bilim, ko‘nikma va malaka, ta‘lim tizimi integratsiyalashuvi, kadrlar tayyorlash, kasb ta‘limi, o‘quv predmeti, ta‘lim tizimi, isloh, sivilizatsiya, ijtimoiy, taraqqiyot, ma‘naviyat, axloq, tarbiya

РОЛЬ УЗБЕКСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ НАУКИ

Курбонова Нигина Бобохужаевна,

Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: что наука-это совокупность знаний и умений, полученных на основе чтения, изучения и жизненного опыта. Было задумано уделять больше внимания актуальным областям того времени, более продуктивно применять достижения науки в практической жизни. Основная цель национальной программы: коренное реформирование сферы образования, полное избавление его от идейных предрассудков и сарказма прошлого, создание на уровне развитых демократий национальной системы подготовки высококвалифицированных кадров, отвечающих высоким моральным и моральным требованиям.

Ключевые слова: наука, мысль, свободомыслие, знания, умения и навыки, интеграция системы образования, обучение персонала, профессиональное образование, предмет обучения, система образования, реформа, цивилизация, социальная, прогресс, духовность, этика, воспитание

THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN THE FIELD OF SCIENCE

Kurbanova Nigina Bobokhoyevna,

Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: The fact that science is a complex of knowledge and skills acquired on the basis of reading, learning and life experience. It was considered to pay more attention to the current areas of the era, to more and more efficiently introduce the achievements of science into practical life. The main goal of the national program is: to radically reform the educational sphere, to completely rid it of the ideologies and upheavals left over from the past, to create a national system of highly qualified personnel training at the level of developed democratic states, meeting high moral and moral requirements.

Keywords: Science, thought, Free Thought, knowledge, skills and competence, integration of the educational system, training of personnel, Professional Education, subject of study, educational system, reform, Civilization, Social, Development, spirituality, ethics, upbringing

Ilm-fan — har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o‘rinli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Konstitutsiyamizda davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy

rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Tarixdan o'zbek jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an'ana sifatida saqlanib kelgan. Buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy aytganlaridek, *"dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay"*. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha erishilgan yutuqlarga qaramay, hali hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish davrida aynan innovatsion yondashuv mamlakat muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Bunday yondashuvni faqat ilm-fan yutuqlari tufayli qo'llash mumkin, shuning uchun ilm-fan taraqqiyoti davlatning innovatsion rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Ilm-fan muammolari iqtisodiy o'sishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, ijtimoiy sohaning dolzarb muammolarini hal qilishga bevosita ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi **19 ta muammo** alohida belgilandi. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining ilm-fanga e'tibori yuqori emasligi, ilmiy-tadqiqot o'tkazadigan jamoalar o'rtacha yoshining kattaligi, ilm-fan va ilmiy faoliyatga moliyaviy resurlarning yetarli darajada yo'naltirilmayotgani shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal qilish muhim bo'lib, har tomonlama va chuqur o'ylangan choralar ko'rishni talab qiladi.

Jahonda rivojlangan mamlakatlar globallashuv sharoit-larida madaniy-ma'naviy taraqqiyot yo'lida madaniy-badiiy meros, madaniyaxloqiy, ma'naviy-estetik qadriyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, o'qitishning metodik ta'minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillash-tirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon fan va madaniyatini o'rganish jarayonida talabalarning badiiy-estetik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglay olishiga erishish, badiiy-madaniy merosga internal (o'zi) va eksternal (o'zga) motivatsiyasini shakllantirish, pedagogik idrok qilish vositasida talabalarning ko'nikma va malakalarini rivojlan-tirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyoda ta'limni mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o'qitishni yangi strategiyalarga moslash-tirish, ta'limning axborot bazasini kasbiy pedagogik faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning ilmiy-amaliy negizlari bo'yicha, jumladan, Angliyaning (Cambridge University), Germaniyaning (Technische Universitat), Rossiyaning (Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti), Chexiyaning (University of Ostrava) kabi Yevropaning rivojlangan mamlakatlarining etakchi universitetlarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim va tarbiya sifatini baholashning xalqaro normalarini joriy qilish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatli munosabatlarning qaror topganlik darajasini belgilash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir. Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap, dedi Prezidentimiz. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimiz mehnati tahsin va rag'batga munosib.

Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi. Pedagogika – murakkab fan. Chunki obykti inson va uning intellektual hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash jarayonidir. Inson esa tabiatning eng murakkab, eng serqirra mavjudoti sifatida hamisha o'zgarish va taraqqiyotda yashaydi. Shuning uchun ham insonni tarbiyalash, unga

ta'lim berish, har tomonlama rivojlantirish jarayonini aniq qonun-qoidalarga sig'dirib qo'yish mushkul va hatto mumkin emas. Inson bir vaqtning o'zida ham ruhiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassam etgan mavjudotdir. Pedagogikaning murakkabligi esa aynan shu jihat – inson qiyofasining serqirraligi tufaylidir. Pedagogika doimo yangi sharoit, yangi avlod ehtiyojlariga moslanishi lozim. Chunki har bir avlodning hayotiy tajribasi, axborot muhiti va qadriyatlari turlicha.

Bu esa pedagogikadan hamisha izlanish, ilmiy yangilanish, innovatsiyalarni talab qiladi. Aslida pedagogikaning fan sifatidagi kuch-qudrati ham ana shu o'zgarishlarga javob bera olishi, inson tabiati bilan hamnafas bo'la olishida namoyon bo'ladi. Umuman, pedagogika insonning o'zi kabi murakkab, serqirra va cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega sohadir. Unga sodda nazar bilan qarash, mohiyatini jo'nalashtirish bu insonning o'ziga, uning kelajagiga nisbatan kamida e'tiborsizlikdir. Bugungi kunda ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Maktablar uchun zamonaviy o'quv dasturlari ishlab chiqilayotgani, oliy ta'limda xalqaro standartlarga mos yo'nalishlar yo'lga qo'yilayotgani, raqamli texnologiyalarning dars jarayoniga kirib kelishi va interaktiv metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni ancha qiziqarli va ta'sirchan bo'lib bormoqda. Bugun o'qituvchi sinfda faqat "axborot beruvchi shaxs" sifatida emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quvchini mustaqil izlanishga undovchi rahbar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon ta'limning zamonaviy talablarga moslasha olayotganidan, o'zgarishlarning hayotga kirib kelayotganidan dalolatdir. Biroq shu bilan birga, shuni ham chuqur anglashimiz zarurki, bu kabi yangilanish va modernizatsiya jarayonlari o'z-o'zidan sodir bo'layotgan hodisa emas. Ular ilmiy asosga, pedagogik tadqiqotlarga suyangan holda ro'yobga chiqmoqda. Demak, har qanday yutuq ortida tadqiqotchi olimlarning mehnati, pedagogik maktablarning izlanishlari va ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiqi yotibdi.

Haqiqatan ham, pedagogik tadqiqotlarsiz ta'lim o'zgarayotgan jamiyatning qiyofasiga moslasha olmaydi. Jamiyat har kuni rivojlanmoqda, ishlab chiqarish sohalarida yangi kasblar paydo bo'lib, insonning kundalik hayotida yangi texnologiyalar mustahkam o'rin egallamoqda. Bu esa o'z-o'zidan yangi bilim va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Masalan, kechagi avlod uchun kompyuter savodxonligi nazariy ko'nikma bo'lgan bo'lsa, bugungi yoshlar uchun u hayotiy zaruratga aylandi. Ertangi kun esa yanada yuqori talablarni qo'yadi: sun'iy intellekt, kibexavfsizlik, ekologik madaniyat kabi sohalar har bir shaxs uchun oddiy bilimlar darajasiga aylanishi mumkin. Shu sharoitda pedagogik tadqiqotlar ta'lim uchun kompas vazifasini bajaradi: "Qaysi metod samarali, qaysi yo'nalish istiqbolli, qaysi bilimlar jamiyat ehtiyojiga javob beradi?" kabi savollarga javob topish uchun ham pedagogika kerak. Ilmiy tahlil, tajriba va asosli xulosalarga tayanmagan ta'lim esa o'zgarishlar bilan hamnafas bo'la olmaydi va jamiyatdan orqada qoladi.

Ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishi ham faqat pedagogik tadqiqotlar orqali amalga oshadi. Singapur, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar ta'lim tizimidagi ulkan yutuqlariga tasodifan erishmagan, balki pedagogik izlanishlar va ular asosida ishlab chiqilgan davlat siyosati natijasida bu darajaga ko'tarilgan. Ularda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar orqali o'quv dasturlari zamon talablariga moslashtirilgan, metodikalar takomillashtirilgan, o'qituvchilar tayyorlash jarayoni qayta ko'rib chiqilgan. Natijada bu mamlakatlar jahon pedagogikasiga ilg'or tendensiyalarni kirita oldi va ta'lim sohasida etalonga aylandi. Mamlakatimiz ham mazkur tajribalarni ilmiy asosda o'rganmas ekan, global bilim maydonida munosib o'rin topa olmaydi. Bu borada mashhur nemis pedagogika nazariyotchisi V. Diltey shunday degan edi: "Pedagogika bu faqat nazariy bilimlar to'plami emas, balki avloddan avlodga o'tib boradigan tajribani ilmiy asosda tashkil etish jarayonidir". Bu so'zlardan ayon bo'ladiki, pedagogik tadqiqotlar nafaqat mavjud bilimlarni saqlab qolish, balki ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tuzish, yangicha

uslubda avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, xorijiy tajribani o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish, faqatgina pedagogik tadqiqotlar orqali samarali bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamon ta'limi turli yo'nalish va g'oyalarni qamrab olgan "paradigma" tushunchasi doirasida shakllanmoqda. Paradigma ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, baholash va boshqaruv mezonlarini belgilaydigan asosiy tayanch g'oyadir. Bugun dunyoda sanoatning 4.0 va 5.0 bosqichlariga o'tilayotgani, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi, "yashil" iqtisodiyotga yo'nalish, xalqaro mobillik va ko'p tilli muhit kabi global o'zgarishlar ta'limdan ham yangi vazifa va kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shuning uchun mamlakatimiz ta'limi ushbu umumjahon talablarini hisobga olgan holda o'zining zamonaviy pedagogik paradigmalarni belgilashi va ularni milliy sharoitga mos tarzda amaliyotga tatbiq etishi zarur. Umuman, ilmning kuch-quvvati aynan ko'p ovozlilikda, xilm-xil yondashuvlar va sog'lom bahslarda namoyon bo'ladi. O'zbek ilm-fanida monopollashtirish illatiga qarshi turish jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti uchun zarur va bu muayyan irodani talab qiladi. Ilm uning uchun xizmat qilgan barcha avlodlarning mulkidir, u bir shaxsga tegishli emas. O'zbek ilm-fanida monopoliyaga qarshi madaniyatni shakllantirish – davr talabidir. Pedagogik axloqning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. U o'qituvchilik kasbi bilan birga tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Axloqiy pand-nasihatlarining ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari yetaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan ustoz ham xalqdir. Yer yuzidagi barcha xalqlar singari turkiy qavmlar qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, vatanni himoya qila oladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-istaklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston, urf-odat, marosimlar, bayramlar, an'ana kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga va boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy xislatlar esa qoralanadi. O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, folklor asarlari, milliy, oilaviy urf-odatlar, an'analar sifatida bizgacha yetib kelgan. O'zbek xalq pedagogikasi asarlarida murabbiy, ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l. Ustoz – otadek ulug'. Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, ma'naviy kamolotga yetkazadi», kabi hikmatlarda murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-qimmatini ulug'langan. O'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omilidir. Turkiy qavmlar o'z bolalarini uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga alohida e'tibor berganlar. Ota-onalar o'z bolalarini aqlli, odobli, go'zal fazilatli inson bo'lib kamol topishini orzu qilishgan. Bunday orzu-istaklar Abulqosim Firdavsiyning «SHohnoma» asarida quyidagicha tasvirlanadi:

Aql yo'l ko'rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqlli obod.
Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.

O'zbek xalq pedagogikasida ota-onaning ibrat ko'rsatish masalasi keng tadqiq qilingan. «Bolalarga go'zal tarbiya berish uchun ota-onalarning o'zlari axloqli, tarbiyali bo'lishlari shartdir. . . Agar otalar o'z umr yo'ldoshlari bilan go'zal ravishda umr kechirsalar, ularni hurmatlasalar, bolalar ulardan olijanoblik va xushmuomalalik odobini o'rganadi».

O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatli bo'lish, qadr-qimmatli bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiy, halol, haqiqatgo'y, mard, jasur, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy-axloqiy ideallar, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. «Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan», «Har kim ekanini o'radi», «Bola aziz, odobi undan aziz» kabi maqollar shular jumlasidandir. Bu kabi o'git va naqlarda xalqimizning tarbiya borasidagi boy merosi namunalari o'z ifodasini topgan

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogika – bu faqat ta'lim berish va tarbiyalash usullari haqidagi nazariyagina emas, balki inson kamoloti, millat ma'naviy qiyofasi va kelajak taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega fan. Uni inkor etish ta'lim va tarbiyadan, demakki, insoniyatning ertangi kundan voz kechish bilan barobar. Ilm olamida bag'rikenglik va xolislik ustuvor bo'lmog'i shart: har bir fan o'z o'rnida qadrli, har bir yo'nalish umumiy taraqqiyot zanjirining zarur bo'g'inidir. Pedagogik tadqiqotlarga hurmat bilan qarash, ularning natijalarini qo'llab-quvvatlash bu o'quvchi shaxsiyati, millat kelajagi, butun insoniyat taraqqiyoti oldidagi ma'naviy burchimizdir. Har bir ishning tub-tubida ilm, tajriba yotadi. Kishi dunyoga kelibdiki, u hayoti mobaynida faqat va faqat ilmu-hunar o'rganadi. Shu davr mobaynida inson ta'lim olish jarayonini boshdan kechiradi. Dastlabki ta'limni albatta jamiyatning ustuni bo'lmish oilada oladi, vaqt o'tishi bilan bog'chaga, maktabga, oliy ta'limga va shu ketma-ketlikda davom ettiraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Izbullaeva, Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: o'quv qo'llanma / G. Izbullaeva. – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. – 180 b.
5. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi. Darslik. Mualliflar: O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. – T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – 312 b.
6. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q.K. Hashimov, S. Nishonova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
7. Ниёзов Ф., Ахмедова М.Э. Педагогика тарихидан семинар машғулотлари. – T.: Ношир, 2011.
8. Нишонова С. Турдикулов Э.О. Педагогик атамалар луғати. – T. «Фан» нашриёти, 2008. – 198 б.
9. Тасаввуф/ Н.Комилов; – T.: «Movarounnahr» – «O'zbekiston», 2009. – 15 б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – T.: ЎзМЭ, 2003. V ж. – 376.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY TA'LIM VA AXBOROT SOHASIDAGI ROLI

Jamolova Tamara Normatovna, BDPI Axborot-resurs markazi xodimi. Kutubxonachilik va axborot xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha mutaxassis.

Ostonova Shaxnoza Akmalovna, BDPI Axborot-resurs markazi xodimi. Elektron resurslar bilan ishlash, foydalanuvchi xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha mutaxassis.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellektning (SI) zamonaviy jamiyatdagi o'rni, ta'lim va ilmiy axborot muhitidagi dolzarbligi hamda axborot-resurs markazlari faoliyatini optimallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining kutubxonachilik, ma'lumotlar boshqaruvi, elektron ta'lim, raqamli kontentni indeksatsiya qilish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash kabi jarayonlarga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, SI asosidagi tizimlar orqali yangi xizmatlarni joriy etish, avtomatlashtirishning ta'lim sifatiga ta'siri, Akademik axborot-resurs markazlarida innovatsion yechimlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, axborot-resurs markazi, raqamli kutubxona, avtomatlashtirish, ma'lumotlar boshqaruvi, innovatsiya.

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ СФЕРЕ

Жамолова Тамара Норматовна, сотрудник Информационно-ресурсного центра БГПИ, специалист по цифровизации библиотечно-информационных услуг.

Остонова Шахноза Акмаловна, сотрудник ИРЦ БГПИ, специалист по работе с электронными ресурсами и пользовательскими сервисами.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение искусственного интеллекта (ИИ) в современном обществе, его актуальность в сфере образования и научно-информационной среды, а также роль ИИ в оптимизации деятельности информационно-ресурсных центров. Представлен анализ влияния технологий ИИ на библиотечную деятельность, управление данными, электронное обучение, индексацию цифрового контента и улучшение пользовательского опыта. В статье предложены инновационные решения для внедрения систем ИИ в академических информационно-ресурсных центрах.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информационно-ресурсный центр, цифровая библиотека, автоматизация, управление данными, инновации.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION AND INFORMATION SERVICES

Jamolova Tamara Normatovna, Staff member of the Information-Resource Center of BDPI, specialist in digital library and information services.

Ostonova Shaxnoza Akmalovna, Staff member of the Information-Resource Center of BDPI, specialist in electronic resources and user services.

Abstract: This article examines the importance of Artificial Intelligence (AI) in modern society, its relevance in education and scientific information environments, and the role of AI in optimizing the work of information-resource centers. The impact of AI technologies on library services, data management, e-learning systems, digital content indexing, and user experience enhancement is thoroughly analyzed. The paper also presents recommendations for implementing innovative AI-based solutions in academic information-resource centers.

Keywords: artificial intelligence, information-resource center, digital library, automation, data management, innovation.

Kirish

XXI asrning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri — bu sun'iy intellektning (SI) jadal rivojlanishidir. SI texnologiyalari inson intellektiga xos bo'lgan fikrlash, o'rganish, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish kabi jarayonlarni texnik tizimlar orqali amalga oshiradi. Bugungi kunda SI nafaqat texnik, harbiy, iqtisodiy yoki tibbiyot sohalarida, balki ta'lim, kutubxonachilik, raqamli axborot boshqaruvi, ijtimoiy sohalar va ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirishda ham asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda.

Axborot-resurs markazlari (ARM) zamonaviy ta'lim muhitining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, SI texnologiyalaridan foydalanish ularning faoliyatini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. ARMLar uchun SI – bu faqat qulay vosita emas, balki resurslarni boshqarish, foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish va ilmiy axborot almashinuvining asosiy mexanizmiga aylanib borayotgan strategik zaruriyatdir.

Sun'iy intellekt tushunchasi va rivojlanish bosqichlari

Sun'iy intellekt — bu inson tafakkuri elementlarini texnik qurilmalar orqali qayta yaratishga, o'rganishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga va mustaqil qaror qabul qilishga qodir tizimlar majmuasidir.

SI rivojlanishi tarixiy nuqtai nazardan bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Ekspert tizimlar davri (1980-yillar)

Bu davrda SI mutaxassislar bilimiga tayanib, ma'lum vazifalarni bajaradigan dasturiy tizimlar sifatida shakllangan. Masalan, tibbiy tashxis, muhandislik hisoblari va iqtisodiy tahlillarda qo'llangan.

2. Mashinali o'rganish (2000-yillar)

Kompyuterlar endi o'z tajribasi asosida mustaqil o'rganish, statistik modellar asosida qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu bosqich SIning ommalashishiga olib keldi.

3. Neyron tarmoqlar va chuqur o'rganish (2010-yillar)

Inson miyasi printsiplariga asoslangan algoritmlar yaratilishi SI rivojida inqilobiy o'zgarish bo'ldi. Natijada nutqni tanish, tasvirni qayta ishlash, tabiiy tilni tushunish kabi vazifalarda SI inson darajasiga yaqin natijalarga erishdi.

4. Katta ma'lumotlar bilan ishlash (Big Data)

Raqamli muhitda paydo bo'layotgan ulkan axborotlar bo'yicha tahlil, bashorat, tasniflash imkonlari kengaydi.

5. Generativ modellar (2020–2025)

Bu bosqichda SI faqat tahlil qiluvchi emas, balki **yaratuvchi tizimga aylandi**:

- matn,
- rasm,
- ovoz,
- video,
- kod generatsiyasi.

Bu texnologiya ta'lim, kutubxonachilik va ARM faoliyatini tubdan o'zgartirdi.

Axborot-resurs markazlari faoliyatida SI imkoniyatlari

Axborot-resurs markazlari nafaqat kitob saqlovchi maskan, balki zamonaviy raqamli axborot almashish platformasi hisoblanadi. SI ARMLar ishini quyidagi yo'nalishlarda transformatsiya qilmoqda:

1. Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish

SI asosida yaratilgan tizimlar kataloglashtirish, tasniflash, raqamlashtirish va resurslarni tartibga solish jarayonlarini inson aralashuvisiz amalga oshiradi.

Afzalliklari:

- Kataloglarga kiritishda xatoliklar miqdori kamayadi.
- Jarayon tezligi bir necha baravar oshadi.
- Kitobxonlar uchun kerakli materiallar soniyalar ichida topiladi.

Shuningdek, tasviriy san'at bolalarda estetik did va emotsional sezgirlikni rivojlantiradi. Ranglar, shakllar va kompozitsiya orqali ular o'z hissiyotlarini ifodalaydi, ichki dunyosini tushunadi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishni o'rganadi. Bu jarayon bolalarda ijodiy tafakkur va emotsional intellektni birgalikda rivojlantirishga yordam beradi va maktab yoshidagi bolalarda tasviriy faoliyat nafaqat san'at ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning mantiqiy, vizual va fazoviy tafakkurini, ijodiy qobiliyatini va emotsional sezgirlikni kompleks tarzda rivojlantiradigan samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli, tasviriy san'at darslarini pedagogik jarayonda nafaqat badiiy mashg'ulot sifatida, balki tafakkur va shaxsiy rivojlanishning muhim vositasi sifatida qo'llash zarur.

Tasavvur va fantaziya rivoji esa ijodiy tafakkur va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bolalar o'z tasavvurlarini erkin ifoda eta olganda, ular nafaqat mavjud voqelikni qayta talqin qiladi, balki yangi va original g'oyalar yaratishni ham o'rganadi. Shu jihatdan, tasviriy san'at maktab ta'limida o'quvchilarga mavzuli rasm chizish, badiiy obrazlar yaratish, ertaklardan motivlar asosida tasvir ishlash yoki abstrakt kompozitsiyalar yaratish kabi topshiriqlar berish ularning fantaziyasini kengaytiradi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z hissiyotlarini, qarashlarini va shaxsiy dunyoqarashini badiiy vositalar orqali ifodalash imkonini beradi. Masalan, mavzuli rasm chizish orqali ular atrof-muhitdagi voqealarni turli nuqtai nazardan ko'rishni o'rganadi, ertaklardan ilhomlanib tasvir yaratish esa ularning hikoya tuzish va syujet asosida ijod qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Abstrakt kompozitsiyalar bilan ishlash esa bolalarga an'anaviy tasviriy chegaralardan chiqib, shakl, rang va teksturani eksperiment sifatida sinab ko'rish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ijodiy tafakkur tanqidiy fikrlash va vizual idrok bilan uyg'unlashadi. O'quvchilar o'z ishlari ustida ishlash davomida detal va kompozitsiyalarning mohiyatini tahlil qiladi, rang va shakllarning o'zaro munosabatini baholaydi, va shuningdek, ijodiy qarorlar qabul qiladi. Bu jarayon ularning kompleks tafakkur ko'nikmalarini shakllantiradi, chunki ular bir vaqtning o'zida estetik, mantiqiy va innovatsion fikrlashni qo'llaydi.

Bundan tashqari, tasavvur va fantaziya rivoji bolalarda muammolarni noan'anaviy yondashuv bilan hal qilish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilar yangi obrazlar yaratishda original g'oyalarni sinab ko'radi, tajribalarni amalga oshiradi va o'z ishlarida kreativ yechimlarni topadi. Bu esa ularni nafaqat san'at, balki kundalik hayot va boshqa fanlar doirasida ham ijodiy va innovatsion qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

Natijada, tasavvur va fantaziya rivoji maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va vizual idrokni uyg'un rivojlantiradigan kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, tasviriy san'at darslarida ijodiy topshiriqlar va fantaziyani rag'batlantiruvchi mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish o'quvchining shaxsiy va intellektual rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Konstruktivistik pedagogika nazariyasi asosida o'quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi subyektdir. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at darslarida quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Mustaqil kompozitsiyalar yaratish

O'quvchiga tayyor namunani ko'chirish o'rniga, turli rakurslardan predmetlarni tasvirlash yoki mavzuga oid rasm chizish topshiriqlari beriladi. Misol uchun, "Mening bog'imdagi tabiat" mavzusida o'quvchi turli rang kombinatsiyalarini sinab, o'z ijodiy kompozitsiyasini yaratadi. Bu jarayon tafakkur va vizual idrokni birgalikda rivojlantiradi, shuningdek, o'quvchiga o'z qarorlarini asoslash va mustaqil yechim topish imkonini beradi.

2. Turli materiallar bilan ishlash

Qog'oz, akril, suv bo'yoqlari, grafit va kollaj materiallari bilan ishlash o'quvchining fantaziyasi va ijodiy yondashuvini kengaytiradi. Misol uchun, "Sevimli hayvonim" mavzusida rang-barang materiallardan kollaj ishlash orqali o'quvchi tasavvurini kengaytiradi, detalga e'tibor va kompozitsion yechimni shakllantiradi. Bu metodik yondashuv, shuningdek, ijodiy tafakkur bilan mantiqiy tahlilni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

3. Muammoli vaziyatlarni yechish

O'quvchilarga topshiriqlar berish orqali muammoli vaziyatlar yaratish: masalan, "Bir xil predmetni uch xil kayfiyatda ifodalang" yoki "Oddiy shakllardan murakkab kompozitsiya yarating". Bu usul tafakkur va ijodiy yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi, variantlarni tahlil qilish va tanlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. STEAM integratsiyasi

Tasviriy san'atni matematika, fizika, biologiya va texnologiya bilan bog'lash o'quvchilarda tizimli tafakkur va fanlararo idrokni rivojlantiradi. Misol uchun, perspektiva qonuniyatlarini matematik modellar orqali o'rganish, yorug'lik va soya tajribalarini fizik qonuniyatlar bilan bog'lash, anatomik bilimlar asosida odam qiyofasini chizish darslari o'quvchining tafakkurini chuqurlashtiradi va uni real hayotiy bilimlar bilan bog'lash imkonini beradi.

5. Raqamli texnologiyalar

Grafik planshetlar, vektorial grafika, 3D modellashtirish va animatsiya bolalarda fazoviy tasavvur, algoritmik va tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, "Mening orzular shahrim" mavzusida 3D modellashtirish o'quvchiga uch o'lchamli obyektlarni loyihalash va turli burchaklardan kuzatish imkonini beradi. Bu esa strategik tafakkur, bosqichma-bosqich rejalashtirish va yechim qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Dars jarayonini tizimli tashkil etishda quyidagi sxemalar samarali hisoblanadi:

Kuzatish → Tahlil → Tasavvur → Kompozitsiya → Rang va material tanlash → Yakuniy ijodiy ish

Muammoli vaziyat yaratish → Variantlar ishlab chiqish → Tanlov va asoslash → Ijodiy yechimni amalga oshirish

STEAM integratsiyasi: Fanlararo bilim → Vizualashtirish → Amaliy ish → Tahlil va taqqoslash → Natijani baholash

Ushbu sxemalar o'quvchilarning tafakkur jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi, ijodiy va analitik fikrlashni uyg'unlashtiradi. Shu bilan birga, dars jarayonida o'quvchilar bir-birining ishini tahlil qiladi, konstruktiv tanqid bildiradi va o'z fikrini asoslaydi. Misol uchun, "Rasm galereyasi" mashg'ulotida o'quvchilar ishlarini namoyish etib, rang uyg'unligi, kompozitsiya va obraz ifodasi bo'yicha baho beradilar. Bu jarayon nafaqat individual, balki ijtimoiy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Rassomlik faoliyati o'quvchilarda emotsional sezgirlikni oshiradi, ichki holatini ifodalash, stressni kamaytirish va kayfiyatni boshqarish imkonini beradi. Intellektual tahlil bilan uyg'unlashgan emotsional ong tafakkur rivojining eng yuqori bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish keng qamrovli va strategik jarayon bo'lib, u ijodiy, tanqidiy, tizimli, ijtimoiy, emotsional va innovatsion tafakkur ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy metodlar, STEAM integratsiyasi, raqamli texnologiyalar, muammoli topshiriqlar, mustaqil izlanish, ijodiy o'yinlar va vizual-sxematik yondashuv darslarni shaxs rivoji uchun kuchli platformaga aylantiradi. Shu yo'l bilan tasviriy san'at maktab ta'limida shaxsning intellektual, estetik va emotsional salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdukhalikov. N. Maktabda tasviriy san'at ta'limi metodikasi. Toshkent: "Sharq".

2018

2. Karimov. O. Tasviriy san'at darslarida vizual idrok va kreativ tafakkur. Toshkent: "Fan va Ta'lim". 2019
3. Qodirov. N. Maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur va kreativlikni rivojlantirish. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2016
4. Islomova. D. Tasviriy san'at va o'quvchilarning estetik didini shakllantirish. Toshkent: Pedagogika. 2019
5. Karimov. S. Bolalar tasviriy ijodini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi. 2020
6. Tursunov. A. STEAM yondashuvi va tasviriy san'at. Ilmiy pedagogik jurnali, 2(5), 22–29. 2017
7. Istamovna, Ibatova Nigora. "Pedagogical approaches to the development of artistic thinking of students." International conference on multidisciplinary science. Vol. 1. No. 5. 2023.
8. Istamovna, Ibatova Nigora. "The role of composition of the educational subject in the process of figurative thinking." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.3 (2024): 531-535.
9. Istamovna, Ibatova Nigora. "THE ROLE OF VISUAL ARTS IN DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.3 (2024): 526-530.

MUSIQA TA'LIMIDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI: O'QITUVCHI MAHORATI VA SAMARADORLIK OMILLARI

Nematov Doniyor Yunusovich, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa ta'limini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati, dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar, kuzatish, suhbat, anketalashtirish kabi ilmiy-tadqiqot usullarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, vokal-xor mashqlaridagi faoliyati, texnologik xarita tuzishdagi tajribasi o'quvchilarda musiqiy didni rivojlantirish va badiiy idrokni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqot musiqiy ta'lim samaradorligini oshirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq va ijodkor shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, kuzatish, suhbat, anketalashtirish, vokal-xor mashqlari, texnologik xarita, ijodiy yondashuv, musiqa didi, badiiy idrok, milliy qadriyatlar, innovatsion yondashuv, pedagogik mahorat, o'quv jarayoni, metodika, musiqiy madaniyat, yoshlar tarbiyasi, samaradorlik.

ИНТЕГРАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Нематов Дониёр Юнусович, независимый исследователь

Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации музыкального образования в общеобразовательных школах на основе современных педагогических и информационных технологий. Анализируется значение педагогического мастерства учителя музыки, использование интерактивных методов, а также исследовательских подходов, таких как наблюдение, интервью, анкетирование. Подчеркивается роль творческого подхода педагога, вокально-хоровых занятий и опыта составления технологической карты урока в формировании художественного восприятия и музыкального вкуса учащихся. Исследование акцентирует внимание на повышении эффективности музыкального образования и воспитании молодежи как творческих личностей, приверженных национальным ценностям.

Ключевые слова: музыкальное образование, педагогические технологии, информационные технологии, интерактивные методы, наблюдение, интервью, анкетирование, вокально-хоровые занятия, технологическая карта, творческий подход, музыкальный вкус, художественное восприятие, национальные ценности, инновационный подход, педагогическое мастерство, учебный процесс, методика, музыкальная культура, воспитание молодежи, эффективность.

INTEGRATION OF PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION: TEACHER PROFESSIONAL SKILLS AND EFFECTIVENESS FACTORS

Nematov Doniyor Yunusovich, Independent Researcher

Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article explores the organization of music education in general schools through the integration of modern pedagogical and information technologies. It analyzes the significance of teachers' pedagogical skills, the use of interactive teaching methods, and research approaches such as observation, interviews, and surveys. The study highlights the role of teachers' creativity, vocal-choral activities, and the development of lesson technological

maps in fostering students' musical taste and artistic perception. The research emphasizes improving the effectiveness of music education and shaping youth as creative individuals committed to national values.

Keywords: music education, pedagogical technology, information technology, interactive methods, observation, interview, survey, vocal-choral activities, lesson plan map, creative approach, musical taste, artistic perception, national values, innovative approach, pedagogical skills, learning process, methodology, musical culture, youth upbringing, effectiveness.

Kirish. Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa musiqa ta'limi standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, musiqiy ta'lim - tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

Asosiy qism. Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval, ta'lim - tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganishi lozim. Bu albatta, ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Musiqa fanidan dars beruvchi tajribali o'qituvchilar faoliyati bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki musiqa ta'lim-tarbiyasi bo'yicha tajribalarni o'rganishda jarayondagi muammolar, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketa so'rovlari, savol-javob, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarini o'rganish metodlaridan foydalaniladi. Masalan: kuzatishda o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsadidan kelib chiqqan holda kuzatish ishlari natijalari bo'yicha bayonnomalashtirishni olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib borilishi kerak. Suhbat esa turli dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan musiqiy materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. «Suhbat mustaqil yoki yordamchi metod sifatida qo'llaniladi». Anketalashtirish musiqaga tegishli materialni to'plash maqsadida amalga oshiriladi.

Mahoratli musiqa o'qituvchisi barcha o'quvchilarning musiqa sohasidagi hujjatlarini o'rganishi lozim. Bunga o'quvchilarning maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlarga qatnashishi, maktabda ta'lim olish hujjatlari nazarda tutiladi. Shuningdek, darsdan tashqari musiqiy to'garak ishlarini ham olib boradi.

Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'libgina qolmay, o'zining fanini ham yaxshi va chuqur bilishi lozimdir. Musiqa o'qituvchisi, shuningdek, yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir. Musiqa cholg'usida yaxshi chalishi, ijro eta olishi, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro qilishi, bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. O'qituvchining eng asosiy fazilatlaridan yana biri shundaki, u musiqa asarini ijro etibgina qolmay, balki uning mazmuni bilan ham tanishtirishi lozim, buning uchun o'qituvchining nutqi ravon, qisqa, hamda tushunarli bo'lishi kerak.

Musiqa madaniyati darsida o'qituvchining mahorati har tomonlama yuksak darajada bo'lishi lozim. Uning asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi orqali o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa san'ati olamiga olib kiradi. Va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa mavzulariga yo'naltirishi mumkin. O'qituvchining musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa, qiziqarli bo'lishi kerak va o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozim. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot usulini qo'llasa, musiqa haqida to'g'ri mulohaza yuritishga, aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko'proq o'quvchilar baxsga o'tadilar. Bu faoliyatida o'qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to'g'ri xulosalarga erishtirilishi lozim.

Shuni qayd qilib o'tish joizki, hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, musiqa ta'limining samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy

ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari mustaqil ravishda topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'z navbatida musiqa o'qituvchilari bolalarni sevishi, o'z kasbiga oid fanlardan puxta bilimga ega bo'lishi, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Uning musiqa mashg'ulotlariga ijodiy yondashib zamon bilan hamnafas qadam tashlashi zamonaviy texnik vositalardan, pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Zero har bir bolada musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarining imkoniyati kengroq bo'ladi. Pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini tashkil etish orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi.

Musiqa o'qituvchi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib o'tishi orqali qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- o'quvchilarda musiqa asari nomi, bastakori, shoirlari haqidagi ma'lumotlarni asar mazmunini tinglash va ko'rish orqali ochib berish;

- o'quvchilarda asarlarni aqliy va emotsional idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish;

- o'quvchilarni yosh xususiyatlariga mos musiqa namunalari bilan tanishtirish;

- kuylagan asar janrini taqqoslash orqali aniqlash hamda asar xarakteriga mos musiqiy ritmik xarakterlar bajarish, rasmlar chizish, hikoyalar tuzish;

- o'quvchilarda musiqa asarlarida tasvirlangan badiiylikni his qilish qobiliyatini rivojlantirish;

- qo'shiqlar matnini yod olishni osonlashtirish hamda badiiy yuksakligi va so'zlarining bolalar lug'at boyligiga mosligini o'rganish;

- bolalarda o'zbek milliy cholg'ulariga bo'lgan qiziqishni o'stirish;

- o'quvchilarda raqs san'atiga bo'lgan qiziqishini o'stirish;

- o'quvchilarda musiqa ohangini his qilish qobiliyatini shakllantirish;

- o'quvchilarda kuylash va tinglash qobiliyatini rivojlantirish;

- o'quvchilarda musiqani idrok etish madaniyatini tarbiyalash.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musiqa darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish, dastalab uning loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy tajribada sinovdan o'tkazish ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Darslarni olib borishning mavjud usullarini pedagogika texnologiyalar asosida tashkil etishda mashg'ulotlarni olib borishga kirishgandayoq pedagogik jarayoning natijasini kafolatlaydigan qilib loyihalash va amalga oshirish yo'li bilangina bajarish mumkin.

Umumta'lim maktablarida har bir musiqa darsining o'ziga xos murakkab texnologiyasi bor. Buning uchun musiqa o'qituvchisi har bir darsni undagi faoliyat turlarini yaxlit holda ko'ra olishi kerak. Uni tasavvur eta olish uchun o'tilajak mashg'ulotni oldindan loyihalashtirishi zarur. Bunda o'qituvchiga bo'lajak mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzish katta yordam beradi. Darsning texnologik xaritasi har bir darsning xususiyati o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib tuziladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, musiqa o'qitish metodikasi, pedagogik va axborot texnologiyalardan yaxshi xabardor bo'lishi hamda ko'plab metod va interaktiv usullarni yaxshi bilishi kerak. Har bir musiqa darsning qiziqarli rang-barang, noan'anaviy bo'lishiga avvaldan puxta uylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga tayanib erishiladi.

Musiqa o'qituvchisi darsning texnologik xaritasini tuzishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

O'qituvchining qanday shaklda texnologik xarita tuzishi uning tajribasiga, mashg'ulotda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri belgilay olishiga, har bir darsga ijodiy yondashishiga ham bog'liq. O'quvchilarni musiqiy o'quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa qo'shiq kuylash

ishlarining ahamiyati katta. Bunda, o'quvchilarni kuylashga qiziqтира olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiqni, o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq. Chunki, yosh, bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishlari ko'pincha o'qituvchi ovozigа taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak.

Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash, qo'shiq o'rgatish jarayonida o'quvchilarning primar tovushlarini kuylash uchun qulay (sol-lya) ishchi diapozoni (mi-si), ovoz diapozonini (re-si) aniq bilishi lozim.

Musiqа o'qituvchisi zimmasiga yuklatiladigan talablardan yana biri uning darslar jarayonida o'quvchilarga qo'shiq o'zgatishni bir necha bosqichlarda amalga oshirishni bilishidir. Jumladan:

1. Bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish.
2. Qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (qo'shiq mualliflari, ayrim tarixiy xususiyatlari, hayotiy ahamiyati, xarakteri, qo'shiq ijrosi.)
3. Qo'shiqni tahlil qilish (musiqа ifoda vositalari, ladi, xarakteri, mazmunini suhbat yo'li bilan belgilash.)
4. Qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, jumlani oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash.)
5. Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazib umumlashtirish).

Yuqoridagi bayon etilgan qo'shiq o'rgatish bosqichlarini, qo'shiq mazmuni, mavzusiga qarab, istagan bosqichdan boshlash mumkin. Asosiy maqsad o'quvchilarni qo'shiqqa ko'proq qiziqтира olish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. O'quvchilarga qo'shiq o'rgatish metodleri esa quyidagilardan iborat:

“Oldinga o'tib ketish va orqaga qaytish” metodi. Qo'shiqni oldingi darslarda bolalarga eshittirib o'rganishga tayyorlab boriladi, so'ngra ma'lum vaqt o'tkazib qo'shiq o'rgatiladi. Bu vaqti-vaqti bilan qo'llanib boriladi.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida musiqа ta'limini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ularning ijodiy salohiyatini ochish, badiiy didini shakllantirish hamda milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. O'qituvchining pedagogik mahorati, interfaol metodlardan oqilona foydalanishi va dars jarayonini texnologik xarita asosida tashkil etishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois musiqа ta'limida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish Yangi O'zbekiston yoshlarini intellektual, estetik va ma'naviy barkamol shaxslar etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 36-b.
2. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» Toshkent., «Moliya» , TDPU., 2008-yil
3. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005 y.-205 b.
4. Omonov H.T. Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.
5. O'tkir Tolipov. Dilnoz Ro'ziyeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” (O'quv qo'llanma) -Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 276 b.

6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
7. T.G'afforova, A.Qurbonov, E.Godfri. "Ta'limning ilg'or texnologiyalari". Qarshi "Nasaf". 2003y.-112 b.
8. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.
9. Lex.uz hukumatning qonun hujjatlari portal – Sh.M.Mirziyoyev – "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 112-son qaror.

ANIQ VA TABIIY FANLAR

AI ASOSIDAGI BAHOLASH TIZIMLARINING AN'ANAVIY BAHOLASHGA NISBATAN USTUNLIKLARI

Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatillo o'g'li, Buxoro davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD)

Jurayev@buxdpi.uz

Ramazonova Dilfuza Jasur qizi, Buxoro davlat pedagogika institute magistranti

ramazonova@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt (AI) asosidagi baholash tizimlarining an'anaviy baholash uslublariga nisbatan afzalliklari ko'rib chiqiladi. AI texnologiyalarining o'quv jarayonidagi roli, baholashning aniqligi, samaradorligi va shaxsiylashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy-intellekt, raqamlashtirish, transformatsiya, media-savodxonlik, axborot, baholash, algoritm, kompetensiya, integratsiya, texnologiya.

ПРЕИМУЩЕСТВА СИСТЕМ ОЦЕНКИ НА ОСНОВЕ ИИ ПО СРАВНЕНИЮ С ТРАДИЦИОННОЙ ОЦЕНКОЙ

Джураев Кулдошжон Исмаиловевич, Бухарский государственный педагогический институт, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Jurayev@buxdpi.uz

Рамазанова Дилфуза Жасур кызы, Бухарский государственный педагогический институт, магистрант

ramazonova@buxdpi.uz

Аннотация. В этой статье рассматриваются преимущества оценочных систем на основе искусственного интеллекта (ИИ) по сравнению с традиционными методами оценки. Анализируется роль технологий искусственного интеллекта в процессе обучения, точность оценки, эффективность и возможности персонализации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, оцифровка, трансформация, медиаграмотность, информация, оценка, алгоритм, компетентность, интеграция, технологии.

ADVANTAGES OF AI-BASED ASSESSMENT SYSTEMS OVER TRADITIONAL ASSESSMENT

Juraev Quldoshjon Ismatillo ogli, Bukhara State Pedagogical Institute, PhD in Pedagogical Sciences

Jurayev@buxdpi.uz

Ramazonova Dilfuza Jasur qizi, Bukhara State Pedagogical Institute, Master's Student

ramazonova@buxdpi.uz

Annotation. This article examines the advantages of AI-based assessment systems over traditional assessment techniques. The role of AI technologies in the educational process, accuracy of assessment, efficiency and personalization capabilities are analyzed.


Keywords: artificial intelligence, digitization, transformation, media literacy, information, evaluation, algorithm, competence, integration, technology.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli media vositalarining keng ommalashuvi hamda sun'iy intellekt (AI) yechimlarining kundalik hayotga chuqur kirib borishi oliy ta'lim tizimining yangi bosqichga o'tishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda media savodxonlik, axborot madaniyati va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. AI texnologiyalarining zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quv faoliyatining avtomatlashtirilishi, individual ta'lim yo'nalishlarining shakllantirilishi, adaptiv baholash tizimlarining joriy etilishi va o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va raqamli makonda ongli faoliyat yuritish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Media va axborot savodxonligi esa talabalarda axborotni izlash, tahlil qilish, baholash hamda raqamli resurslar bilan samarali ishlash kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy pedagogik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt atamasining ilmiy muomalaga ilk bor 1956 yilda Dartmut universitetidagi anjumanda Jon Makkarti tomonidan kiritilgani SI rivojlanish tarixida muhim bosqichdir. Lotincha "intellectus" — bilish, anglash ma'nosidan kelib chiqqan ushbu tushuncha insonning bilish faoliyatini mashina orqali modellashtiruvchi tizimlarni anglatadi. AI tizimlari murakkab ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish imkonini beradigan dasturiy hamda texnik vositalar majmuasidir. Ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quv axborotlari bilan ishlash sifatini yangi bosqichga ko'taradi.

Xalqaro miqyosda AI texnologiyalarining rivojlanishi Birlashgan Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib kelmoqda. BIMTning 2019 yildagi "Texnologiya tendensiyalari – Sun'iy intellekt" hisobotida AIning jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga chuqur kirib borayotgani ta'kidlangan. Tashkilot Bosh direktori Frensis Garri sun'iy intellektni "raqamli chegara" deya baholab, uning xavfsiz va mas'uliyatli rivojlanishi uchun global hamkorlik zarurligini qayd etgan. Ta'lim sohasida media va axborot savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan YUNESKO dasturlari oliy ta'lim muassasalari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar talabalarda mustaqil axborot izlash, media resurslarini tanqidiy baholash, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va ularni AI texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2021 yil 17 fevraldagi Prezident qarori AI texnologiyalarini jadal joriy etish bo'yicha izchil islohotlar uchun huquqiy asos yaratdi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida sun'iy intellektni ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. 2024 yil 14 oktabrda PQ-358-son qarori bilan tashkil etilgan "Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi" AI sohasida ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlamoqda. Mazkur jarayonlar oliy ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlar, raqamli didaktik modellar va AIga asoslangan ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Talabalar misolida qaralganda, AI platformalari orqali individuallashtirilgan ta'lim, adaptiv baholash, o'quv jarayonini monitoring qilish, tezkor tahlil va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari ta'lim sifatining sezilarli oshishiga xizmat qilmoqda. Ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining integratsiya qilinishi o'quv faoliyatining barcha bosqichlarini modernizatsiya qilish, samaradorligini oshirish va talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. AI ta'limni individuallashtirish tamoyilini yangi bosqichga ko'tarib, har bir talabanning bilim darajasi, o'rganish sur'ati, qiziqishlari hamda kognitiv ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallarini

shakllantirish imkonini beradi. Adaptiv o'qitish tizimlari real vaqt rejimida o'quv natijalarini monitoring qiladi, talaba uchun mos murakkablik darajasidagi topshiriqlarni avtomatik shakllantiradi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini mustahkamlaydi. AI asosidagi raqamli yordamchilar — chatbotlar, virtual tutorlar va intellektual o'quv platformalari o'qituvchilar uchun samarali qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular talabalar savollariga tezkor javob berish, uy vazifalarini tahlil qilish, test natijalarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash, o'quv jarayonining shaffofligini ta'minlash va o'qituvchining vaqt resurslarini optimallashtirishga yordam beradi. Natijada, o'qituvchilar pedagogik jarayonning mazmuniy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi, talabalarning esa muntazam, aniq va individual fikr-mulohaza olish imkoniyati kengayadi.



1-rasm. AI asosidagi baholash tizimlarining asosiy ustunliklari.

AIning adaptiv o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash, bashoratli tahlil va emotsional monitoring kabi imkoniyatlari ta'lim sifatini diagnostika qilish jarayonini yangi bosqichga ko'taradi. Adaptiv tizimlar talabaning o'zlashtirish sur'ati, xatolari, qiyinchilik tug'dirgan mavzulari, javoblar tezligi haqida aniq tahliliy ma'lumotlarni shakllantiradi va o'qituvchiga individual pedagogik strategiya tanlash imkonini beradi. Shu tariqa, talabalarda metakognitiv ko'nikmalar, o'z-o'zini baholash va refleksiya jarayonlari rivojlanadi. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining maqsadli va tizimli joriy etilishi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitish sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va raqamli jamiyat talabalariga mos intellektual salohiyatli shaxslarni shakllantirishda muhim innovatsion resurs sifatida namoyon bo'lmoqda.

AI texnologiyalari inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ham sezilarli ahamiyat kasb etadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv kontentlari, matnni ovozli o'qish, ovozli interfeyslar, kompyuter ko'rish algoritmlariga asoslangan vizual

yordamchi vositalar yaratilmoqda. Bu esa ta'lim muhitining har bir talabaga teng imkoniyatlar asosida tashkil etilishiga zamin yaratadi. VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanishi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini soddalashtirmoqda. Tibbiyot, muhandislik, arxitektura, texnika, tabiiy fanlar yo'nalishlarida talabalarga xavfsiz muhitda murakkab amaliy jarayonlarni sinovdan o'tkazish imkoniyati yaratilmoqda. VR texnologiyalari orqali jarrohlik simulyatsiyalari, AR yordamida 3D qurilish modellarini tahlil qilish, laboratoriya jarayonlarini virtual muhitda bajarish kabi imkoniyatlar ta'lim jarayonini real tajribaga yaqinlashtirmoqda. Til o'rganish sohasida ham AI texnologiyalarining samarasi yuqori. Duolingo AI, Elsa Speak, Grammarly kabi intellektual platformalar talaffuzni tahlil qilish, nutqni tanish, tarjima qilish va real muloqot simulyatsiyalarini taqdim etish orqali talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantiradi. Sun'iy intellektdan ta'limda foydalanish jarayonida axloqiy me'yorlarga amal qilish alohida ahamiyatga ega. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ma'lumotlar bazasidan mas'uliyatli foydalanish, algoritmik adolatsizlik va xatoliklarning oldini olish, baholash jarayonining xolisligini ta'minlash kabi talablarga qat'iy rioya etilishi AI texnologiyalarining ta'limdagi ishonchlilik darajasini belgilaydi. Muhimi, AI o'qituvchining o'rnini to'liq bosmaydi; u faqat o'qituvchining pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, jarayonni boyituvchi va optimallashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Pedagogik empatiya, muloqot, shaxsiy yondashuv kabi insoniy omillar ta'lim jarayonida asosiy o'rinda qoladi. AI va media savodxonlikning integratsiyasi ta'lim tizimining dolzarb ilmiy-pedagogik yo'nalishlaridan biridir. Media savodxonlik talabalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, yolg'on xabarlarini aniqlash, manipulyativ kontentni farqlash va raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. AI esa ushbu jarayonni avtomatlashtirilgan tahlil, axborotni filtrlash, relevant ma'lumotlarni aniqlash orqali qo'llab-quvvatlaydi. Natijada talabalarda texnologik hamda axborot madaniyati kompetensiyalarining uyg'un rivoji ta'minlanadi.

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Sun'iy intellektning oliy ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi o'qitish, o'rganish va baholash jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, AI asosidagi baholash tizimlari an'anaviy baholash uslublariga nisbatan yuqori aniqlik, tezkorlik, obyektivlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlab, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Media va axborot savodxonligining rivojlanishi esa talabalarning raqamli kompetensiyalarini kengaytirib, ularni zamonaviy axborot oqimida mustaqil, tanqidiy va ongli harakat qilishga tayyorlaydi. O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va strategik tashabbuslar oliy ta'limda AI yechimlarini joriy etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Natijada, adaptiv ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash, raqamli monitoring va individual ta'lim yo'nalishlari kabi yangi pedagogik yondashuvlar shakllanmoqda. Bu jarayonlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki zamonaviy mehnat bozoriga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlanishiga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga joriy etilishi ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'quv jarayonining sifati va inklyuzivligini ta'minlash, ta'lim muassasalarini raqobatbardosh qilishda muhim omil bo'lib, ta'lim tizimining istiqboldagi barqaror rivojlanishida hal qiluvchi strategik o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazini tashkil etish to'g'risida Qaror. PQ-358. – 2024-yil 14-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida* Qaror. PQ-4996. – 2021-yil 17-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi*. – Toshkent, 2020.
4. YUNESKO. *The Grünwald Declaration on Media Education*. – Paris: UNESCO, 1982.
5. YUNESKO. *The Alexandria Proclamation on Information Literacy and Lifelong Learning*. – Alexandria, 2005.
6. World Intellectual Property Organization (WIPO). *WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence*. – Geneva: WIPO, 2019.

ТОЖДЕСТВА ИСТИННЫЕ НА РЕШЕТКАХ ПОДПОРЯДКОВ

Холов Миржамол Нарзуллаевич, Новосибирский национальный исследовательский государственный университет Кафедра: Дискретной математики и информатики Аспирант 1-курса. телефон +7(999)322 –09 –01

Электронная почта: m.kholov@g.nsu.ru

Ключевые слова: решетка подпорядков, частично упорядоченное множество, атом, неразложимый элемент, цепь, тождества, модулярная решетка, дистрибутивная решетка, n -дистрибутивность алгебраические свойства, решетка M_3 (диамант), решетка N_5 (пентагон).

Аннотация: В работе даны необходимые определения и изложены некоторые результаты, касающиеся многообразия, порожденного решеткой L_4 подпорядков четырехэлементной цепи. В частности, показано, что сама решетка L_4 не является модулярной, и найдены некоторые нетривиальные тождества, истинные в этой решетке.

Известно [1], что класс решеток подпорядков является универсальным, т. е. любую решетку можно вложить в решетку подпорядков подходящего частично упорядоченного множества. Важную роль сыграли решетки подпорядков при доказательстве вложимости решеток в решетки подполугрупп. Известны характеристики решеток, вложимых в решетки подпорядков для конечных частично упорядоченных множеств.

Ограничения на частично упорядоченные множества приводят и к другим интересным результатам. Например, известно, что класс решеток, вложимых в решетки подпорядков частично упорядоченных множеств ограниченной конечной высоты, является конечно базлируемым многообразием. В [2] показано, что конечно базлируемым многообразием является квазимногообразие, порожденное решеткой L_3 подпорядков 3-элементной цепи.

Задачей данной работы является поиск обобщений результатов работы [2] с целью изучения строения решетки подпорядков 4-элементной цепи и свойств ее (квази)эквациональной теории.

IDENTITIES TRUE ON SUBORDER LATTICES

Kholov Mirzhamol Narzulaevich, Novosibirsk National Research State University
Department of “Discrete Mathematics and Informatics”

1st level postgraduate student

Telephone number: +7(999)322 –09 –01, e-mail: m.kholov@g.nsu.ru

Keywords: suborder lattice, partially ordered set, atom, indecomposable element, chain, identities, modular lattice, distributive lattice, n-distributivity, algebraic properties, M3 (rhombus) lattice, N5 (pentagon) lattice.

Abstract: In this paper, we provide the necessary definitions and present some results concerning the variety generated by the L_4 suborder lattice of a four-element chain. In particular, we show that the L_4 lattice itself is not modular, and we find some nontrivial identities that are true on this lattice.

It is known [1] that the class of suborder lattices is universal, i.e., Any lattice can be embedded in the suborder lattice of a suitable partially ordered set. Suborder lattices played an important role in proving the embeddability of lattices in subsemigroup lattices. Characterizations of lattices embeddable in suborder lattices of finite partially ordered sets are known. Restrictions to partially ordered sets also lead to other interesting results. For example, it is known that the class of lattices embeddable in suborder lattices of partially ordered sets of bounded finite height is a finitely based variety. In [2], it was shown that the quasivariety generated by the L_3 suborder lattice of a three-element chain is a finitely based variety. The goal of this paper is to find generalizations of the results of [2] for studying the structure of the suborder lattice of a four-element chain and the properties of its (quasi)equational theory.

PASTKI TARTIBLI PANJARALARDA TO'G'RI BO'LGAN AYNIYATLAR

Xolov Mirjamol Narzulaevich, Novosibirsk milliy tadqiqot davlat universiteti
"Diskret matematika va informatika kafedrası"1-bosqich aspiranti

Telefon: +7(999)322 -09 -01

Pochta: m.kholov@g.nsu.ru

Kalit so'zlar: Pastki tartibli panjara, qisman tartiblangan to'plam, atom, parchalanmaydigan element, zanjir, ayniyatlar, modulli panjara, taqsimlovchi panjara, n-distributivlik, algebraik xususiyatlar, M3 (olmos) panjara, N5 (beshburchak) panjara.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zarur ta'riflar keltirilgan va to'rt elementli zanjirning L_4 pastki tartiblari tomonidan hosil qilingan xilma-xillikka oid ba'zi natijalar keltirilgan. Xususan, L_4 panjarasining o'zi modulli emasligi va bu panjarada ba'zi trivial bo'lmagan ayniyatlar topilganligi ko'rsatilgan.

Ma'lumki, [1] Pastki tartibli panjaralar klassi universaldir, ya'ni har qanday panjara mos qisman tartiblangan to'planning pastki tartibli panjarasiga joylashtirilishi mumkin. Pastki tartibli panjaralar kichik yarim guruhli panjaralarda panjaralarning joylashtirilishini isbotlashda muhim rol o'ynadi. Cheklangan qisman tartiblangan to'plamlar uchun pastki tartibli panjaralarga joylashtiriladigan panjaralarning tavsiflari ma'lum. Qisman tartiblangan to'plamlarga cheklovlar boshqa qiziqarli natijalarga ham olib keladi. Masalan, cheklangan chekli balandlikdagi qisman tartiblangan to'plamlarning pastki tartibli panjaralariga joylashtiriladigan panjaralar sinfi chekli asosli xilma-xillik ekanligi ma'lum. [2] da 3 elementli zanjirning L_3 pastki tartibli panjarasi tomonidan hosil qilingan Kvazi-ko'plik chekli asosli xilma-xillik ekanligi ko'rsatildi. Ushbu ishning maqsadi 4 elementli zanjirning pastki tartibli panjarasining tuzilishini va uning (kvazi)tenglama nazariyasining xususiyatlarini o'rganish uchun [2] ish natijalarining umumlashtirishlarini topishdir.

1 Частично упорядоченные множества и решетки

Определение 1.1 (Ч. у. множество). Частично упорядоченное (ч. у.) множество $\langle A; \leq \rangle$ состоит из непустого множества A (носителя) и бинарного отношения \leq на нем, удовлетворяющего условиям

(рефлексивности) $a \leq a$

(антисимметричности) если $a \leq b$ и $b \leq a$, то $a = b$,

(транзитивности) если $a \leq b$ и $b \leq c$, то $a \leq c$.

Если отношение \leq дополнительно удовлетворяет условию линейности

$a \leq b$ или $b \leq a$,

то частично упорядоченное множество называется линейно упорядоченным или цепью.

Определение 1.2 (Решетка как ч. у. множество). Частично упорядоченное множество $\langle P; \leq \rangle$ есть решетка, если $\sup H$ и $\inf H$ существуют для любого непустого конечного подмножества H множества P .

Определение 1.3 (Решетка как алгебра). Решетка — это алгебра с бинарными операциями \vee и \wedge , которые удовлетворяют тождествам

$$\begin{array}{ll} \text{(идемпотентности)} & a \vee a = a, a \wedge a = a \\ \text{(коммутативности)} & a \vee b = b \vee a, a \wedge b = b \wedge a \text{ (ассоциативности)} \quad (a \wedge b) \wedge \\ c = a \wedge (b \wedge c), (a \vee b) \vee c = a \vee (b \vee c), \text{ (поглощения)} & a \wedge (a \vee b) = a, \vee(a \wedge b) = a \end{array}$$

Следующее известное утверждение (см., например, [3, § I.1]) показывает, что два определения решетки по существу приводят к одному и тому же классу объектов. Различие обнаруживается при рассмотрении некоторых алгебраических конструкций, но во многих ситуациях можно считать решетки алгебрами или предикатными системами в зависимости от того, какое представление удобнее.

Предложение 1.4. Если ч. у. множество $\langle P; \leq \rangle$ является решеткой в смысле определения 1.2, то алгебра $\langle P; \vee, \wedge \rangle$ является решеткой в смысле определения 1.3, где $a \vee b = \sup\{a, b\}$ и $a \wedge b = \inf\{a, b\}$.

Обратно, если алгебра $\langle P; \vee, \wedge \rangle$ является решеткой в смысле определения 1.3, то ч. у. множество $\langle P; \leq \rangle$ является решеткой в смысле определения 1.2, где $a \leq b$ тогда и только тогда, когда $a = a \wedge b$.

1.1 Решеточные тождества

В условиях для частичного и линейного порядка, а также тождествах из определения 1.3 подразумевается, что они выполняются для всех элементов a, b и c носителя. Вообще, в универсальной алгебре тождеством называют универсальное предложение вида

$$\forall x \mathcal{P}(t_1(x), \dots, t_n(x)),$$

где x — кортеж переменных $(\bar{x}_1, \dots, \bar{x}_m)$, \mathcal{P} — n -местный предикатный символ или 2-местный символ равенства $=$, а t_1, \dots, t_n — термы от переменных из x . Часто при записи тождеств кванторы всеобщности опускаются (что, например, сделано в определениях выше).

Важную роль в теории решеток играют тождества дистрибутивности и модулярности:


$$\begin{array}{ll} \text{(дистрибутивность)} & a \vee (b \wedge c) = (a \vee b) \wedge (a \vee c), \\ \text{(дистрибутивность)} & a \wedge (b \vee c) = (a \wedge b) \vee (a \wedge c), \\ \text{(модулярность)} & (a \wedge b) \vee (a \wedge c) = a \wedge (b \vee (a \wedge c)). \end{array}$$

Многообразие дистрибутивных решеток, определяемое любым из эквивалентных тождеств дистрибутивности, является наименьшим нетривиальным многообразием решеток. Оно содержит все цепи и решетку подмножеств произвольного множества. Тождеству модулярности удовлетворяют решетки нормальных подгрупп групп и идеалов колец (см., например, [4]).

Характеризация дистрибутивных и модулярных решеток может быть найдена, например, в [3, § II.1].

Предложение 1.5. Решетка модулярная тогда и только тогда, когда в нее не вложима решетка M_5 . Модулярная решетка дистрибутивная тогда и только тогда, когда в нее не вложима решетка M_3 .

Решетки M_3 (ромб) и M_5 (пентагон) изображены на следующем рисунке (M_3 слева, M_5 справа). На элементах a , b и c , нарушаются тождества дистрибутивности и модулярности соответственно.



Более слабыми, чем тождества дистрибутивности, являются тождества n -дистрибутивности, введенные в [5].

Определение 1.6. Решётка L называется n -дистрибутивной, если для любых $x, y_1, \dots, y_n \in L$ выполняется равенство

$$(1) \quad a \wedge \bigvee_{0 \leq i \leq n} b_i = \bigvee_{0 \leq i \leq n} (a \wedge b_i).$$

Непосредственно из определения видно, что при $n = 1$ получается тождество дистрибутивности и для $n \geq 1$ любая n -дистрибутивная решетка является $(n + 1)$ -дистрибутивной.

1.2 Решетки подпорядков

Для любого частично упорядоченного множества $\langle P; \leq \rangle$ рассмотрим решетку подпорядков, т. е. рефлексивных, антисимметричных и транзитивных бинарных отношений \sqsubseteq на P таких, что $x \sqsubseteq y$ влечет $x \leq y$

для любых $x, y \in P$. Порядок определяется включением отношений как множеств пар элементов множества P . Если рассматривать такую решетку как алгебру, то нетрудно увидеть, что операция \wedge совпадает с теоретико-множественным пересечением, но операция \vee не совпадает с теоретико-множественным объединением (требуется транзитивное замыкание объединения).

Покажем на примере 3-элементной цепи построение ее решетки подпорядков L_3 (см. также [2]). Этот пример позволит обратить внимание на специальные элементы, важные для описания результатов дипломной работы.

Пример 1.7. Пусть $P = \{0, 1, 2\}$, где $0 < 1 < 2$. Тогда порядок на P состоит из пар

$$(0, 0), (1, 1), (2, 2), (0, 1), (1, 2), (0, 2).$$

Первые три из них будут принадлежать любому подпорядку в силу рефлексивности. Значит, любой подпорядок определяется тем, какие из оставшихся пар принадлежат ему. В частности, носитель решетки L_3 состоит не более чем из восьми элементов.

Два из этих элементов легко указать: это диагональное отношение Δ , состоящее только из трех первых пар (наименьший элемент), и весь исходный частичный порядок \leq (наибольший элемент).

Также нетрудно указать атомы решетки L_3 , т. е. элементы, покрывающие наименьший. Каждый из них содержит три диагональные пары и еще одну пару из исходного частичного порядка. Значит, в решетке L_3 три атома. Обозначим их следующим образом:

$$x = \Delta \cup \{(0, 1)\}, y = \Delta \cup \{(1, 2)\}, z = \Delta \cup \{(0, 2)\}.$$

